©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 25-aprel,2026

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDA AQLIY MARKAZLARNING O‘RNI

Yuldashev Odamboy
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Birlashgan Arab Amirliklarining (BAA) zamonaviy siyosiy boshqaruv tizimida “aqliy markazlar”ning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. BAAning geosiyosiy va geoiqtisodiy sharoitlari fonida ushbu institutlarning shakllanishi, rivojlanishi hamda davlat siyosatini ishlab chiqish jarayoniga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, “think tanklar”ning ichki va tashqi siyosatdagi funksiyalari, ular orqali bilim va hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “think tank”, ECSSR, EPC, TRA, AGDA.

KIRISh XXI asr xalqaro munosabatlar tizimi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Globalizatsiya davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik bog‘liqligini keskin kuchaytirib, an’anaviy kuch muvozanatini yanada murakkablashtirmoqda. Bugungi kunda xalqaro tizimda davlatlar o‘z manfaatlarini ilgari surish va global raqobatda barqaror o‘rin egallash uchun resurslardan tashqari puxta ishlab chiqilgan strategiyalar va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlariga tayanmoqda. Shunday sharoitda “aqliy markazlar” (think tanks) davlatlar uchun siyosiy diskurs ishlab chiqaruvchi, siyosiy qarorlarni tahlil qiluvchi va uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim institutlarga aylanmoqda. Ular globallashuv sharoitida murakkab geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlarni tushunish, baholash hamda ularga mos siyosat ishlab chiqishda davlatlarga intellektual asos yaratadi. Mazkur jarayonda Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) o‘zining innovatsion boshqaruv modeli va strategik yondashuvi bilan alohida ajralib turadi. BAA global transformatsiya sharoitida aqliy markazlardan tizimli ravishda foydalanib, ularni davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning muhim vositasiga aylantirgan davlatlarga yorqin misol bo‘la oladi.

Ushbu model G‘arbning an’anaviy aqliy markazlaridan farqli ravishda, davlat bilan yaqin integratsiyalashgan, institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlangan va strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan tahliliy tizim sifatida shakllangan. Mazkur yondashuv BAAga bir tomondan murakkab geosiyosiy muhitda moslashuvchan va pragmatik tashqi siyosat yuritish imkonini bersa, ikkinchi tomondan esa ichki modernizatsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan strategik rejalashtirish orqali qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, BAA tajribasi “aqliy markazlar”ning davlat boshqaruvi tizimidagi rolini o‘rganishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Birlashgan Arab Amirliklarida “aqliy markaz”larning tashkil etilishi uchun o‘ziga xos siyosiy va iqtisodiy sabablar mavjud bo‘lib, ularni aniqlashda BAAning shakillanish tarixini o‘rganish lozim. Karam Shahrurning “Amirliklar tashqi siyosati evolutsiyasi (1971-2020)” maqolasida BAA yuzaga kelish tarixi, mintaqadagi mojarolar, yirik va mintaqaviy kuchlar o‘rtasida muvozanatni ushlash natijasida olib borilgan ehtiyotkor tashqi siyosatiy yondashuvning shakillanishi haqida batafsil yoritilgan.

“Aqliy markaz”larni nazariy jihatdan o‘rganishda Jeymas Mak.Ganning “AQShda tahlil markalari va siyosiy maslahatlar” asari asosiy adabiyotlardan hisoblanadi. Ushbu asarda siyosiy tahlil markazlari nima va ular qanday faoliyat olib borishi haqida batafsil tadqiq etilgan. Mishel Fuko esa o‘zining “Intizom va Jazo” (Discipline and Punish) asarida hokimyat va bilim o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ochib beradi.

Mazkur maqola qiyosiy, “root cause”, kontent va retrospektiv tahlil usullaridan foydalanilgan holda tadqiq etildi.

NATIJALAR Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) bugungi kunda Yaqin Sharqdagi eng nufuzli davlatlardan biri hisoblanadi. Dubayning jahon darajasidagi infratuzilmasi va biznes uchun qulay muhiti tufayli u dunyoning asosiy savdo va moliyaviy markazlaridan biriga aylangan. Boshqacha qilib aytganda, bu mamlakat mojarolar, konservatizm yoki qashshoqlikdan aziyat chekayotgan mintaqada boylik, imkoniyat va farovonlik vohasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z nufuzi bilan bir qatorda, BAA so‘nggi o‘n yillikda Yaqin Sharq geosiyosiy o‘yinining muhim ishtirokchilaridan biri sifatida ham o‘zini namoyon qildi [1]. Bu albatta, BAAning uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati natijasidir. Uzoq muddatli puxta rejalashtirishda BAAning o‘ziga xos tizimi – “aqliy markaz”larni tashkil etib, siyosatshunos olimlardan davlat siyosatini amalga oshirishda foydalanayotgani asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Davlat siyosatini tadqiq va tahlil qiluvchi tashkilotlar (aqliy markazlar) ichki va tashqi siyosatda muhim rol o‘ynaydi. Ularning vazifasi o‘ziga xos bo‘lib, ular davlat siyosatini o‘rganish, tahlil qilish, maslahat berish va turli xil siyosiy muammolarga ilmiy-nazariy yechimlar berishdan iborat. Ko‘pchilik hollarda notijorat maqsadda tashkil etilib, har qanday hukumat ta’siridan – davlat idoralari, partiyalar va siyosiy guruhlardan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Ushbu fuqarolik jamiyati tashkilotlarining asosiy vazifasi ichki va tashqi siyosatni chuqur tushunish va aniq takliflar ishlab chiqishdan tashqari yana bir qancha funksiyalarni ham bajaradi, jumladan, hukumat va jamoatchilik o‘rtasida vositachilik vazifasini bajarib, tomonlar o‘rtasida ishonchni kuchaytirish; siyosiy qaror qabul qilish jarayonida aniq dalil va ma’lumotga ega mustaqil ovoz bo‘lish; joriy siyosat masalalari, takliflar va dasturlarni anglash, shakllantirish va baholash; g‘oyalar va yuzaga kelayotgan muammolarni ko‘tarish; elektron va bosma ommaviy axborot vositalari uchun masalalar, yuz berayotgan hodisalar va siyosiy jarayonlarni talqin qilish va yetkazish, shu tariqa aholining ichki va tashqi siyosat masalalarini tushuntirish; siyosiy qarorlar qabul qilishda asosiy manfaatdor tomonlar o‘rtasida g‘oyalar va ma’lumotlar almashinuvi uchun konstruktiv forum tashkil etish; hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlarini kadrlar bilan ta’minlash; byurokratlar va saylangan amaldorlarning an’anaviy qarashlari, standart ish tartiblari va odatiy faoliyat usullariga qarshi chiqish kabi dolzarb vazifalar bilan shug‘illanadi [2]. Bu orqali aqliy markazlar nafaqat hukumatga davlatni idora etishda yordam beradi, balki, xalq hokimyatini amalga oshirishda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan kelib chiqadiki, “aqliy markazlar” hukumatga siyosiy qarorlar qabul qilishda yordam berish bilan birga, uning legitimligini ham ta’minlashda yordam beradi. Ushbu institutlarning rolini Mishel Fukoning hokimiyat va bilim o‘rtasidagi munosabatlar konsepsiyasi nuqtayi nazaridan yanada chuqurroq tushunish mumkin. M.Fuko “Intizom va Jazo” (Dicipline and Punish) asarida ta’kidlaganidek, hokimiyat va bilim bir-birini tashkil etadi, ularning har biri ikkinchisini yaratadi va mustahkamlaydi. Ular ishlab chiqaradigan bilimlar – siyosiy tahlillardan tortib geosiyosiy narrativlargacha – siyosiy hokimiyatdan mustaqil emas, balki davlat tuzilmalari va strategik maqsadlarga bog‘langan. Shu bilan birga, bu bilimlar siyosiy tanlovlarni qonuniylashtirish, “diskurs”ni shakllantirish, davlatning

boshqaruv va xalqaro ta’sir salohiyatini oshirish orqali davlat hokimiyatini mustahkamlashga yordam beradi [3]. Aytish joizki, “aqliy markazlar” nafaqat siyosiy jarayonlarni tahlil qiluvchi mustaqil institutlar, balki bilim ishlab chiqarish orqali hokimiyat shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim mexanizm ham hisoblanadi. Ular ishlab chiqqan ilmiy asoslangan tavsiyalar, konseptual yondashuvlar va tahliliy materiallar siyosiy qarorlarning sifatini oshirish bilan birga, ularni jamiyat nazarida asoslash va qabul qilinishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhim jihati shundaki, aqliy markazlar ichki siyosatda hukumatga iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvini isloh qilish, ta’lim siyosati va ijtimoiy barqarorlik kabi murakkab ichki muammolarni hal qilishda yordam beradi. Ma’lumotlarni to‘plash, siyosatni tahlil qilish va ehtimoliy ssenariylarni ishlab chiqish orqali siyosatchilarga qaror qabul qilishda sifatli, dalillarga asoslangan ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu hukumatlarga strategik rejalashtirilgan siyosatni ta‘minlash imkonini beradi. Shu ma’noda, tahlil markazlari boshqaruvning samaradorligi va oqilonaligini oshirishga hissa qo‘shadi. Aqliy markazlar tashqi siyosat sohasida ham muhim rol o‘ynaydi. Ular xalqaro tendensiyalar, geosiyosiy jarayonlar va mintaqaviy dinamikani tahlil qilib, hukumatlarga tobora murakkablashib borayotgan muhitda strategik qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi. Xavfsizlik, diplomatik munosabatlar va iqtisodiy hamkorlik masalalari bo‘yicha hisobotlar orqali hukumatni yuz berayotgan geosiyosiy voqealikni tushunishiga yordam beradi. Bu, ayniqsa, uzoq muddatli tashqi siyosiy strategiyalarni shakllantirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va imkoniyatlarni oldindan ko‘ra bilishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi alohida e’tiborga loyiq.

BAA so‘nggi o‘n yillikda nafaqat iqtisodiy modernizatsiyada, balki strategik boshqaruv va siyosiy rejalashtirish tizimini takomillashtirishda ham sezilarli natijalarga erishdi. Bu jarayonda “aqliy markazlar” davlat siyosatini ilmiy asoslash, global tendensiyalarni tahlil qilish va milliy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita sifatida shakllandi. Shu sababli, BAA “aqliy markazlari” nafaqat mustaqil tahliliy institut, balki davlat siyosiy qarorlarini qabul qilishda xizmat qiluvchi mexanizm hisoblanadi. BAAda bunday markazlar tashkil etilishining o’ziga xos geosiyosiy va geoiqtisoidy sabablari bor.

Geosiyosiy sabab Birlashgan Arab Amirliklari asrlar davomida yirik kuchlar uchun strategik muhim hisoblanib kelgan, yirik neft zaxiralari mavjud bo‘lgan Ko‘rfaz mintaqasida joylashgan bo‘lib, 1971-yilda Buyuk Britaniyadan mustaqillikka erishgach, o‘z tashqi siyosatini mustaqil ravishda shakllantirishga majbur bo‘ldi. Shu bilan birga, Eron bilan ayrim orollar (Abu Musa va Katta hamda Kichik Tunb) yuzasidan hududiy nizolar mavjud [4]. Mintaqada yuz bergan yirik mojarolar: Eron–Iroq urushi (1980–1988), Iroqning Kuvaytga bostirib kirishi (1990), shuningdek AQSh boshchiligidagi Iroqqa bosqin (2003) — xavfsizlik muhitini yanada murakkablashtirdi [1]. Bundan tashqari, sunniy–shia qarama-qarshiligida hamda BAAning Saudiya Arabistoni va Eron kabi ikki yirik mintaqaviy kuchlar o‘rtasida joylashgani uni ehtiyotkor va puxta o‘ylangan siyosat yuritishga undaydi [5]. Shu sababli, BAA “aqliy markazlar” orqali geosiyosiy tahlil, strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini mustahkamlashga intilib kelmoqda.

Geoiqtisodiy sabab Ma’lumki Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi mamlakatlari tabiiy uglevodorod (neft, gaz va boshqalar) resurslariga boy. Ular ushbu resurslardan o‘z infratuzilmalarini kengaytirish, fuqarolarining hayot sifatini yaxshilash va neftsiz dunyoga tayyorgarlik ko‘rish uchun foydalanib keladilar. So‘nggi yigirma yil ichida Ko‘rfaz davlatlari ilg‘or shaharlar va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur infratuzilmani yaratib, barqaror iqtisodiy o‘sish uchun poydevor yaratdilar. Bularning barchasi tashqi

savdoning neft va gaz qazib olishdan keladigan daromadga qaram iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish maqsadida amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, Ko‘rfaz davlatlari tashqi daromadining asosiy ulushi neft va gazdan iborat. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) YIMning 30% ulushi aynan neftga to‘g‘ri keladi. Pandemiyadan oldin Xalqaro valyuta jamg‘armasi Ko‘rfaz arab davlatlari jiddiy fiskal va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmasa, 2034-yilga kelib o‘z neft va gaz zaxiralarini tugatishini prognoz qilgan edi [6]. Shunday ekan BAA o‘z iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish ilinjida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun turli xil markazlar tashkil etib, siyosiy tahlilchilar tayyorlashga katta e’tibor berib kelmoqda.

BAA “aqliy markazlari” Birlashgan Arab Amirliklari “aqliy markazlari” AQSh va Yevropanikidan biroz farq qiladi. G‘arbda aqliy markazlar asosan nodavlat tashkilotlar sifatida asos solinib, faoliyat yuritsa, BAAda bunday markazlarni tashkil etish asosan hukumat tomonidan amalaga oshirilida. Ushbu turdagi tahlil markazlarini tashkil etish orqali BAA ichki siyosatda qonun-loyihalari ishlab chiqish, aholini boshqarish va hukumat idoralariga iqtidorli kadrlar yetkazish mexanizmini barpo etmoqda. Tashqi siyosatda esa hukumatga mavjud xalqaro siyosiy vaziyatni tahlil qilish va mumkin bo‘lgan ehtimoliy ssenariylarni ishlab chiqish va bularda hukumatga qanday chora-tadbir ko‘rish kerakligi to‘g‘risida nazariy yondashuvlar taqdim etadi. BAAda bunday tadqiqot markazlarini tashkil etish aynan hukumat tomonidan amalga oshirilib, ularning ba’zilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Amirlik oilalari tomonidan moddiy tomondan moddiy tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

BAA Strategik tadqiqotlar va izlanishlar markazi (Emirates Center for Strategic Studies and Research) ECSSR BAA Tashqi ishlar vazirligiga aloqador bo‘lib 1994-yilda Abu Dabida tashkil etilgan. Ushbu markaz o‘zining turdoshlari orasida dastlabkilardan bo‘lib, siyosat, strategiya, tashqi munosabatlar, xavfsizlik masalalari kabi sohalarni qamrab olgan holda tadqiqotlar olib boradi. Bundan tashqari BAA va Ko‘rfaz davlatlari ichki siyosati, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarini ham yoritadi. Boshqa tildagi tadqiqotlarni arab tiliga tarjima qilish orqali ushbu tildagi ma’lumotlar bazasini ham boyitish bilan shug‘ullanadi [7]. Ushbu tadqiqot markazi hukumat siyosatini amalga oshirishda izlanishlar olib borib har xil tadqiqot va monografiyalar tayyorlash orqali davlat boshqaruvining nazariy asosini yaratadi. Bu orqali akademiya va qaror qabul qiluvchilar o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini amalga oshiradi.

BAA Siyosat markazi (Emirates Policy Center) Ushbu markaz asosan mintaqaviy geosiyosiy jarayonlarni tadqiq etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, Ko‘rfaz mintaqasi xavfsizlik masalalari, siyosiy islom, energetika va global kuchlar muvozanatini tahlil etish orqali BAAning multivektor siyosatini amalga oshirishda nazariy yondashuvlar ishlab chiqadi [8]. BAA tashqi siyosatdagi pragmatik yondashuvini asosini tashkil etuvchi ma’lumotlar ishlab chiqaradi va mintaqaviy mojarolarda risk menejmentni aniqlab, Amirliklarga muqobil siyosiy yo‘nalishlarni taqdim etadi.

Shayx Saud bin Saqr Al Qosimiy nomidagi siyosiy tadqiqotlar jamg‘armasi (Sheikh Saud bin Saqr Al Qasimi Foundation for Policy Research)

2009-yilda Ras Al-Xayma shahrida tashkil etilgan bo‘lib, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash asosiy maqsadi hisoblanadi. U yuqori sifatli tadqiqotlar o‘tkazish, davlat sektori salohiyatini oshirish va jamoatchilikni jalb qilishga qaratilgan vazifalarni bajaradi. Dastlab ta’limga qaratilgan bo‘lsa-da, uning faoliyati sog‘liqni saqlash, shaharsozlik va madaniyatni ham qamrab oldi [9]. Ushbu muassasa ta’lim siyosati, iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosatga e’tibor qaratadigan amirlik darajasidagi siyosiy tadqiqotlar fondidir. U hukumatga davlatni idora etishda siyosiy

yo‘nalishlar ishlab chiqish va mahalliy boshqaruv ehtiyojlariga moslashtirilgan amaliy tadqiqotlarga katta e’tibor qaratadi.

TENDENSIYALAR Tadqiqot va maslahat (TRENDS Research & Advisory)TRA xalqaro munosabatlar, siyosiy islom, xavfsizlik tadqiqotlari va geoiqtisodiyotga e’tibor qaratadigan tahlil markazidir [10]. U BAA “yumshoq kuch”ini ishlab chiqish va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Shuningdek, tashkilot, global forumlar tashkil etish va xalqaro tahlil markazlari bilan hamkorlik qilish orqali BAAning bilim diplomatiyasi vositasi sifatida faoliyat yuritadi.

Anvar Gargash nomidagi Diplomatik akademiyasi (Anwar Gargash Diplomatic Academy) Ushbu “aqliy markaz” gibrid institut bo‘lib, u ham diplomatik ta’lim akademiyasi, ham tahlil markazi sifatida faoliyat yuritadi. U BAA diplomatlarini tayyorlash, shuningdek, tashqi siyosat bo‘yicha tadqiqotlar olib borish va strategik hisobotlarni tayyorlash bilan shug‘ullanadi. Xususan, iqtisodiy diplomatiya bo‘yicha hisobotlarni nashr etish uchun mas’uldir [11]. Akademiya BAA diplomatik korpusini professionallashtirish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, ta’limni siyosatga oid tadqiqotlar bilan uyg‘unlashtirish orqali tashqi siyosatni shakllantirishda bevosita rol o‘ynaydi. U BAAning iqtisodiy diplomatiya strategiyasi va ko‘p tomonlama tashqi siyosat yondashuviga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Shuningdek, u qo‘shma tadqiqotlar va siyosiy muloqot uchun ECSSR kabi tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qiladi [12]. Umuman olganda, AGDA tashqi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita ishtirok etadigan davlat bilan integratsiyalashgan diplomatik tahlil markazidir.

XULOSA Birlashgan Arab Amirliklarida shakillangan “aqliy markazlar” tizimi zamonaviy davlat boshqaruvi va tashqi siyosatni ishlab chiqishning o‘ziga xos modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu institutlar davlatning strategik qaror qabul qilish jarayonida ilmiy asoslangan tahlil, prognoz va siyosiy tavsiyalarni taqdim etish orqali siyosiy tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada BAA o‘z tashqi siyosatida moslashuvchanlik, ko‘p vektorli va pragmatizmga asoslangan yondashuvni muvaffaqiyatli shakllantira oldi.

Mazkur modelning asosiy yutug‘i shundan iboratki, aqliy markazlar davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan holda, qaror qabul qilish jarayonini ilmiylashtiradi va institutsional barqarorlikni mustahkamlaydi. Ayniqsa, geosiyosiy noaniqlik va iqtisodiy diversifikatsiya zarurati sharoitida bunday tahliliy institutlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Biroq ushbu tizimning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, aqliy markazlarning davlatga yaqinligi ularning to‘liq mustaqilligini cheklab, tahliliy xolislik darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchidan, G‘arbdagi klassik “think tank”lardan farqli ravishda, tanqidiy siyosiy pozitsiya va alternativ yondashuvlar doirasi nisbatan torroq bo‘lishi ehtimoli mavjud. Bu esa ilmiy pluralizmning cheklanishiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, ayrim markazlarning faoliyati ko‘proq hokimyat siyosatini legitimlashtirish va siyosiy narrativni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu ularning mustaqil akademik rolini so‘roq ostida qoldiradi.

Umuman olganda, BAAning aqliy markazlar modeli davlat, bilim va siyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yangi bosqichga olib chiqqan innovatsion boshqaruv tizimi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu tajriba nafaqat mintaqaviy siyosiy jarayonlarni tushunishda, balki global think tanklar evolyutsiyasini tahlil qilishda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karam Sh. (2020) “The evolution of Emirati foreign policy (1971-2020): The unexpected rise of a small state with boundless ambitions”. Sciences Po. Retrieved from https://www.sciencespo.fr/kuwait-program/wp-content/uploads/2021/02/Shahrour-Karam-The-evolution-of-Emirati-foreign-policy-1971-2020.pdf
2. James G.McGann. (August 2005) Think Tanks and Policy Advice in The US. Foreign Policy Research Institute, 2005. – 33 p. Retrieved from https://www.kas.de/c/document_library/get_file?uuid=720e9151-74aa-8525-7ff8-ffcacde0cc5c&groupId=252038
3. Foucault M. Discipline and punish: The birth of the prison (1977) (A. Sheridan, Trans.). Vintage Books. New York, 1995. – 333 p. Retrieved from https://monoskop.org/images/4/43/Foucault_Michel_Discipline_and_Punish_The_Birth_of_the_Prison_1977_1995.pdf
4. Al-Nahyan, K. S. Z. (2013). The three islands: Mapping the UAE-Iran dispute. Royal United Services Institute. – 168 p. Retrieved from https://static.rusi.org/201312_bk_the_three_islands_2.pdf
5. Diansaei B. Iran and Saudi Arabia in the Middle East: Leadership and sectarian conflict (2011–2017) Vestnik RUDN. International Relations. 2018. Vol. 18, No 3. 124–134 pp. Retrieved from https://journals.rcsi.science/2313-0660/article/view/338830/313584
6. Same, but different: The Evolution of Think Tanks in the GCC. Botho Ermerging Markets Group. 2023. Retrieved from https://static1.squarespace.com/static/5f5a5bc390f5352733c81462/t/647871fa45cabf757ba848ad/1685615130318/Design+GTT+Brief_+Final+Version++%28MAY%29.pdf
7. Li, Y. (2017). Profile and Characteristics of Arab Think Tanks. Yonsei Journal of International Studies, 9(1). 115–126 pp. Retrieved from https://theyonseijournal.com/wp-content/uploads/2017/06/17SS_YJIS_Arab-Think-Tanks.pdf
8. Emirates Policy Center. Policy Commons. Retrieved from https://policycommons.net/orgs/emirates-policy-center/
9. Al Qasimi Foundation for Policy Research. JSTOR. Retrieved from https://www.jstor.org/publisher/alqasimi
10. TRENDS Research & Advisory. About Us: Foreseeing the Future through Knowledge. Retrieved from https://trendsresearch.org/about/
11. UAE economic diplomacy report (2023). Anwar Gargash Diplomatic Academy. Retrieved from https://www.agda.ac.ae/docs/default-source/2023/uae-economic-diplomacy-report-2023/full-doc---website-version.pdf?sfvrsn=f59b663b_1
12. Emirates Group & Anwar Gargash Diplomatic Academy. (2023). A collaboration to build diplomatic capacity in the UAE aviation sector. Emirates Media Centre. Retrieved from https://www.emirates.com/media-centre/a-collaboration-between-emirates-group-and-anwar-gargash-diplomatic-academy-builds-diplomatic-capacity-in-the-uae-aviation-sector/